O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA NON GASTRONIMINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Raxmatilloyeva Feruza Nematilloyevna
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalq maqollarida faol qo‘llanilgan non gastronimining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida non konseptining xalq tafakkuridagi o‘rni, uning mehnat, halol rizq, muqaddaslik, qanoat, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liqligi paremiologik birliklar asosida yoritiladi. Shuningdek, maqollarda nonning semantik va ramziy vazifalari tasniflanib, o‘zbek xalqining milliy mentaliteti hamda agrar dunyoqarashi bilan aloqador jihatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. non gastronimi, paremiologiya, lingvomadaniyat, o‘zbek xalq maqollari, gastronomik kod, konsept, milliy mentalitet, mehnat, halol rizq

Abstract. This article analyzes the linguocultural features of the gastronim “bread” widely used in Uzbek folk proverbs. The study examines the role of the bread concept in folk consciousness and its connection with labor, honest livelihood, sacredness, contentment, social relations, and moral values through paremological units. The semantic and symbolic functions of bread in proverbs are also classified in relation to the national mentality and agrarian worldview of the Uzbek people.

Keywords. gastronim of bread, paremiology, linguoculture, Uzbek folk proverbs, gastronomic code, concept, national mentality, labor, honest livelihood

Til xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, xalq maqollari milliy tafakkur va hayotiy tajribaning ixcham ifodasi sifatida alohida ahamiyatga ega. O‘zbek xalq maqollarida gastronomik birliklar keng qo‘llanadi va ular orasida non gastronimi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Non o‘zbek xalqining kundalik turmushida oddiy oziq-ovqat mahsuloti bo‘lish bilan birga, rizq, baraka, mehnat, halollik va muqaddaslik ramzi sifatida ham talqin qilinadi. Shu sababli non bilan bog‘liq maqollar xalqning milliy mentaliteti va lingvomadaniy qarashlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. O‘zbek xalqining tarixiy turmush tarzi dehqonchilik va agrar madaniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli non konsepti xalq ongida alohida qadriyat sifatida shakllangan. Maqollarda nonning turli semantik vazifalarda qo‘llanishi ushbu konseptning ko‘p qatlamli mohiyatini ko‘rsatadi.

Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi yo‘nalishlardan biridir. Ushbu yo‘nalishda til birliklari xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari va qadriyatlari bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. non leksemasi o‘zbek lingvomadaniyatida keng semantik maydonga ega. U nafaqat oziq-ovqat nomi, balki hayot, tiriklik, halol mehnat, baraka va muqaddaslik timsoli sifatida ham qo‘llanadi. O‘zbek xalqida nonni hurmat qilish bilan bog‘liq ko‘plab urf-odatlar mavjud. Jumladan, nonni yerga tashlamaslik, non ushoqlarini bosmaslik, nonni teskari qo‘ymaslik kabi an’analar xalq tafakkurida nonning muqaddas ne’mat sifatida shakllanganligini ko‘rsatadi.

Maqollarning tematik tasnifi va lingvomadaniy tahlili

1. Non – mehnat va halol rizq timsoli. Mazkur guruhdagi maqollarda non inson mehnatining mahsuli sifatida talqin qilinadi. Xalq tafakkuriga ko‘ra, halol mehnat orqali topilgan non barakali hisoblanadi.

Ushbu guruhga quyidagi maqollar kiradi:

1. Non gadosi bo‘lsang ham,
2. Yurt gadosi bo‘lma.
3. Ketmon chopdim – non tishladim.
4. Ketmon chopmoq – olmoq-solmoq,
5. Qo‘sh haydamoq – bormoq-kelmoq,
6. O‘roq o‘rmoq – o‘ynamoq,
7. Hay-hay ishning og‘iri,
8. Xamir qilmoq, non yopmoq
9. Mehnatli non – shakar,
10. Mehnatsiz non – zahar.
11. Mehnatli osh osh bo‘lar,
12. Mehnatsiz osh – tosh.
13. Mehnatning noni – mazali,
14. O‘g‘rining umri – azali.
15. Mehnatning noni – shirin,
16. Yalqovning joni – shirin.
17. Non yemoqchi bo‘lsang,
18. O‘tin tashishdan erinma.
19. Nonni mehnat topgan,
20. Mehnatni non topgan.
21. Sen ishni quvsang,
22. Non seni quvar.
23. Sovut kiyib ma’rakada jon bergan,
24. Ketmon urib kecha-kunduz non bergan.
25. Yalqov bo‘lsa o‘g‘loning,
26. Yerdan non termas.
27. Abjir bo‘lsa o‘g‘loning,
28. Cho‘ldan don terar.
29. Beli og‘rimaganning non yeyishini ko‘r.
30. Dehqon emas, ketmon chopib non bermasa,
31. Oshiq emas, ishq yo‘lida jon bermasa.
32. Non – nonda, kaliti – osmunda.
33. Ovchi non qidirar,
34. Konchi – kon.
35. Ter to‘ksang, don to‘kasan,
36. Don to‘ksang, non to‘kasan.
37. Dehqon odam don sochar,
38. El-yurtiga non sochar.

“Ketmon chopdim – non tishladim” maqolida jismoniy mehnat va rizq o‘rtasidagi bog‘liqlik ifodalangan. “Mehnatli non – shakar, mehnatsiz non – zahar” maqolida esa halol va harom rizq antiteza asosida qarama-qarshi qo‘yilgan. “Ter to‘ksang, don to‘kasan, don to‘ksang, non to‘kasan” maqolida mehnat jarayonining bosqichlari aks etgan. Ter – mehnat ramzi, don – hosil, non esa yakuniy natija sifatida talqin qilingan. Mazkur maqollarda “ketmon”, “dehqon”, “don”, “bug‘doy” kabi birliklarning faol qo‘llanishi o‘zbek xalqining qishloq xo‘jaligi turmush tarzi bilan bog‘liqdir.

2. Non – hunar va kasb bilan bog‘liq konsept

Bu guruhdagi maqollarda hunar insonni boqadigan vosita sifatida talqin qilinadi.

Quyidagi maqollar ushbu guruhga mansub:

1. Hunarmandning noni – butun.
2. Hunarni o‘rganib qo‘ysang,
3. Sendan osh-non tilamaydi.
4. Qo‘li hunarsiz – non gadoyi.
5. Hunar bo‘lsa qo‘linga,
6. Non topilar yo‘lingda.
7. Hunar oshxo‘rga osh berar, Nonxo‘rga – non.

“Hunarmandning noni – butun” maqolida hunar insonning iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi vosita sifatida ko‘rsatilgan. “Qo‘li hunarsiz – non gadoyi” maqolida esa hunarsizlik qashshoqlikka olib keluvchi omil sifatida baholangan. Bu maqollarda non “tirikchilik” ma’nosida qo‘llangan bo‘lib, hunar bilan bog‘liq konseptual maydonni hosil qiladi.

3. Non – muqaddaslik va hurmat ramzi

Bu guruhdagi maqollarda non muqaddas ne’mat sifatida ulug‘lanadi.

Quyidagi maqollar kiradi:

1. Nonga hurmat – elga hurmat
2. Non bolasi – non ushoq.

3. Non qadrini och bilar, Kiyim qadrini yalang‘och.
4. Non ham non, ushog‘i ham non.
5. Nonvoyga non aziz, Tegirmonchiga – un.
6. Nonga e’tibor – elga e’tibor.
7. Nonga hurmat – elga hurmat
8. Ochlik azobini chekmagan, Non qadrini bilmas.
9. Osh – avliyo, non – payg‘ambar.
10. Non qiyshiq emas, bug‘doyi qiyshiq.
11. Bir boshoq don – Bir savat non.
12. Don ayagan donga yetar, Non ayagan – nonga.
13. Oshni ayasang – oshga, Nonni ayasang – nonga.

“Nonga hurmat – elga hurmat” maqolida nonni qadrlash xalqni qadrlash bilan tenglashtiriladi. “Non ham non, ushog‘i ham non” maqoli nonning har bir bo‘lagi ham qadrlanishi kerakligini anglatadi. Bu holat xalqning isrofga salbiy munosabatini ham ifodalaydi.

4. Non – hayot va tiriklik timsoli

Mazkur guruhdagi maqollarda non inson hayotining asosiy manbayi sifatida talqin qilinadi. Quyidagi maqollar ushbu guruhga kiradi:

1. Non bo‘lsa bas, o‘zgasi havas.
2. Non qon bo‘lsa, qon – jon.
3. Qorni ochga non bo‘lsa bas,
4. Ko‘zi ochga dunyo yetmas.
5. Avval – non, keyin in‘om.
6. Molsiz uy bor, nonsiz uy yo‘q.
7. Nonsiz yashab bo‘lmas,
8. Gapni oshab bo‘lmas.
9. Och qolgan nondan gapir.
10. Yarimta non – rohati jon.
11. Non mo‘lligi – el to‘qligi.
12. Och qorinda non turmas.
13. Uying kapa bo‘lsin,
14. Noning katta bo‘lsin.
15. Ochga bir non – qalqon.
16. Och qolib yegan so‘ng, Zog‘ora non ham qand bo‘lar.
17. Qor – osh bilan non.

“Nonsiz yashab bo‘lmas” maqoli nonning biologik ehtiyoj sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. “Molsiz uy bor, nonsiz uy yo‘q” maqolida esa non har qanday xonadonning asosiy ehtiyoji ekanligi ta’kidlangan. “Ochga bir non – qalqon” maqolida non himoya vositasi metaforasi orqali tasvirlangan.

5. Non – qanoat va sabr timsoli

Bu guruhdagi maqollar qanoat va mavjud ne’matni qadrlash g‘oyasini ifodalaydi. Mazkur guruhga quyidagi maqollar kiradi:

1. Son tegmaganga son tegdi,
2. Zog‘ora tegmaganga – non.
3. Don ayagan donga yetar,
4. Non ayagan – nonga.
5. Oshni ayasang – oshga,
6. Nonni ayasang – nonga.
7. Tilaganga ne berar,
8. Qatti-qutti non berar.
9. Yarimta non – rohati jon.
10. Och qolib yegandan so‘ng,
11. Zog‘ora non ham qand bo‘lar.
12. Har narsaga g‘am yema,
13. Parcha nonni kam dema.

“Och qolib yegandan so‘ng, zog‘ora non ham qand bo‘lar” maqolida ehtiyoj inson uchun oddiy narsaning ham qadrini oshirishi ifodalangan. “Har narsaga g‘am yema, parcha nonni kam dema” maqoli qanoatparvarlik va ne’matni qadrlash g‘oyasini targ‘ib qiladi.

6. Non – axloqiy va tarbiyaviy qadriyatlar ifodasi

Mazkur maqollarda non insonning axloqiy qiyofasi va odob me'yorlari bilan bog'liq holda qo'llangan. Quyidagi maqollar ushbu guruhga mansub:

1. Bug'doy noning bo'lmasin,
2. Bug'doy so'zing bo'lsin.
3. Mardning noni – butun.
4. Nomard non ustida ham nolishini qo'ymas.
5. Yaxshi qiz erta turib, soch tarar,
6. Yomon qiz erta turib, non so'rar.
7. Chiroyga non botirib yeb bo'lmas.
8. Gapni katta gapirma,
9. Nonni katta tishlama.
10. Dashnom yeganim – besh non yeganim.
11. Bug'doy noning bo'lmasa ham,
12. Ochiq yuzing bo'lsin.
13. Gapni gapir joyi bilan,
14. Nonni yegin moyi bilan.
15. Non yemasning ishiga boq.
16. Katta-katta gapirguncha,
17. Katta burda non tishla.
18. Otasini og'ritgan
19. El ichida xor bo'lar,
20. Onasini og'ritgan Parcha nonga zor bo'lar.

"Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin" maqolida yaxshi muomala moddiy boylikdan ustun qo'yilgan. "Gapni katta gapirma, nonni katta tishlama" maqolida esa kamtarlik targ'ib qilinadi. Mazkur maqollarda non axloqiy mezon sifatida qo'llangan.

7. Non – ijtimoiy tengsizlik va kambag'allik ko'rsatkichi

Bu guruhdagi maqollarda non ijtimoiy tabaqalanish va ehtiyoj ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur guruhga quyidagi maqollar kiradi:

1. Non gadosi bo'lsang ham,
2. Yurt gadosi bo'lma.
3. Qorni ochga non bo'lsa bas,
4. Ko'zi ochga dunyo yetmas.
5. O'lgan o'zbekning qo'ynida noni bor.
6. Nasiya nonning ham kuyugi bo'lar, ham kesagi.
7. Tilab olgan non qorin to'ydirmas.
8. Borning bolasi mol deb turar,
9. Yo'qning bolasi – non.
10. Gado non topsa, to'rva topmas.
11. Bedavlatning noni yarim.
12. Kambag'alniki – imonda.
13. Boyning bug'doy nonidan,
14. Kambag'alning bug'doy so'zi yaxshi.
15. Boyning jon bergani bilinmas,
16. Kambag'alning – non bergani.
17. Boyning ko'zi – xonda,
18. Yo'qning ko'zi – nonda.
19. Kambag'al non yeydi,
20. Boy – qon.
21. Kambag'alning ko'ziga kepchak non bo'lib ko'rinar.

"Boyning ko'zi – xonda, yo'qning ko'zi – nonda" maqolida turli tabaqalarning ehtiyojlari qiyoslangan. "Bedavlatning noni yarim" maqolida iqtisodiy qiyinchilik obrazli tarzda ifodalangan. "Kambag'alning ko'ziga kepchak non bo'lib ko'rinar" maqolida esa ehtiyojmand inson tafakkurida nonning markaziy o'rin egallashi ko'rsatilgan.Ayrim maqollar semantik jihatdan bir necha guruhga mansub bo'lishi mumkin. Bu esa non konseptining ko'p qatlamli lingvomadaniy birlik ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalq maqollarida "non" gastronimi muhim lingvomadaniy konsept sifatida namoyon bo'ladi. Maqollarda non mehnat, halol rizq, muqaddaslik, hayot, qanoat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq ramziy ma'nolarni ifodalaydi.

Non konseptining maqollarda keng qo'llanishi o'zbek xalqining agrar turmush tarzi, dehqonchilik madaniyati va rizqni muqaddas deb bilish an'analari bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuningdek, non bilan bog‘liq maqollar xalqning axloqiy qarashlari, mehnatsevarlik, qanoatparvarlik va isrofga salbiy munosabatini ham aks ettiradi. Demak, non gastronimi o‘zbek xalq maqollarida nafaqat gastronomik birlik, balki xalqning milliy mentaliteti va madaniy xotirasini ifodalovchi muhim lingvomadaniy konsept hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurova, D., & Galiyeva, M. (2019). Cultural linguistics. Tashkent: Vneshinvestrom.
2. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. (2001). Маънолар махзани (ўзбек маколларининг изохли лугати). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти.
3. Mirzayev T. R., Musoqulov A., Sarimsoqov B. (2005). O‘zbek xalq maqollari [Uzbek Folk Proverbs]. – Toshkent: Sharq,
4. Жўраева Б.М. (2019). Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. доктори ... дисс. – Самарқанд,. – 237 б.